

Akramov Bekzod Baxtiyorovich
Bank-moliya akademiyasi magistri
bakramov224@gmail.com

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotasiya: Mazkur tadqiqot ishida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollarini o'rganishda barqaror iqtisodiy o'sishning zarurati, yashil iqtisodiyotning mazmuni va rivojlanish bosqichlari, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni tahlili va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Tahlillar asosida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, yashil loyiha, yashil energiya, yashil moliyalashtirish, yashil iqtisodiyot taksonomiyasi.

Abstract: In this research research, the need for sustainable economic growth, the content and stages of development of the green economy, the analysis of the process of transition to the green economy in Uzbekistan, and the ways of developing the green economy in Uzbekistan are analyzed. Relevant conclusions were formed based on the analysis.

Keywords: economy, green economy, green project, green energy, green financing, green economy taxonomy.

1. Kirish

Mamlakat iqtisodiyoti va eksporti tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini jadal sur'atlarda oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni yanada yuksaltirish O'zbekistonda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev (2017) Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir" deb ta'kidlagan.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun uning turli bo'limlari, tarmoqlari va sohalari o'rtasida o'zaro mutanosiblikni ta'minlanmasligi mamlakatda iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga bu esa o'z navbatida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga kelishiga, ishsizlik va inflatsiya darajasining oshib ketishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sabab bo'ladi.

2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining A'trof-muhit bo'yicha Dasturi (2011) yashil iqtisodiyotni inson farovonligini yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavflarni va ekologik resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan mexanizm sifatida belgilaydi. Oddiy qilib aytganda, bu kamroq uglerod chiqindilarini ishlab chiqarishga va barcha ijtimoiy guruhlarni resurslar bilan joylashtirishga urg'u beradigan iqtisodiyot. Resurslar samaradorligi va energiya sarfini oshirish orqali ifloslanish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot, shuningdek, davlat va xususiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilishi kerak bo'lgan daromadlar va ish o'rinlari o'sishiga intiladi. Ushbu investitsiyalarni maqsadli davlat xarajatlari, siyosatni isloh qilish va o'zgartirish qoidalari bilan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash kerak. Rivojlanish yo'li tabiiy kapitalni saqlashi va yaxshilashi kerak. Darhaqiqat, uning qurilishi kerak bo'lganda cheklanadi, chunki u jamoat manfaati manbai bo'lib, ayniqsa, xavfsizligi va turmush tarzi tabiatga bog'liq bo'lgan kambag'allar uchundir.

Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasi so'nggi bir necha yil ichida sahnada paydo bo'ldi. Uning g'oyasi barqaror rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish kontekstida muhokama qilindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining A'trof-muhit bo'yicha dasturi yashil iqtisodiyotni ekologik xavflarni kamaytirish orqali inson hayotining yaxshilanishi bilan yuzaga keladigan va resurslardan samarali

foydalaniladigan uglerod gazining kichik foiziga ega bo'lgan iqtisodiyot deb ta'riflagan. Bu, shuningdek, daromadlarning o'sishini oshiradi va davlat va xususiy investitsiyalarda ish bilan ta'minlaydi. Uning asosiy vazifasi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, shu bilan birga resurslar va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish va biologik xilma-xillikni yo'qotishning oldini olishdir. Bunga faqat siyosat va qonunchilikni isloh qilish orqali erishish mumkin (Khanfar A., 2014).

Bundan tashqari, ba'zilar taxmin qilganidek, "yashil iqtisodiyot" tamoyili barqaror rivojlanishning o'rnini bosa olmaydi. Aksincha, barqarorlikka erishish deyarli butunlay iqtisodiyotni isloh qilishga asoslangan. Garchi bu uzoq muddatli maqsad bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lsa-da, lekin bu maqsadga erishish uchun biz iqtisodiyotni "yashillashtirish" ustida ishlashimiz kerak (BMT, 2011).

A.O'lmasov va A.Vaxobov (2014)ning e'tirof etishicha: «Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni hayotiy ne'matlar bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishining ko'payib borishidir». A.SH.Bekmurodov va U.V.G'afurov (2008)ning fikricha, «Iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi». Iqtisodchi A. Mo'minov (2016)ning qarashicha: Iqtisodiy o'sish deganda bevosita yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi qiymatining ortishi tushuniladi. Agar maqsad mamlakatning iqtisodiy salohiyatini baholash bo'lsa, u holda YaIM hajmining o'sish suratlaridan foydalaniladi.

3. Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosiy ustuvor vazifa etib belgilab kelindi.

Shu sababli ham, «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir» (2016).

Ilmiy adabiyotlarda makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilashga bo'lgan turli yondashuvlarni uchratish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, makroiqtisodiy barqarorlikka iqtisodiy, siyosiy, demografik, ilmiy-texnik, tabiiy va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Demak, makroiqtisodiy barqarorlikni iqtisodiyotning bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan va bir-birini taqozo etadigan omillar ta'sirida shakllangan holati sifatida talqin qilish mumkin.

1-jadval

Makroiqtisodiy barqarorlik mezonlari

Ko'rsatkichlar	Rivojlanayotgan davlatlar uchun makroiqtisodiy barqarorlik mezonlari	
	Mazmuni	Darajasi
Iqtisodiy o'sish	Real YaIMning yillik o'sishi, foiz	min 5
Pul massasisining o'sishi	YaIM o'sishiga mutanosib ravishda, foiz	min 5
Inflyatsiya darajasi	Istemol narxlari indeksi bo'yicha, foiz	max 10
Ishsizlik darajasi	Iqtisodiy faol aholiga nisbatan, foiz	max 7
Davlat byudjeti kamomadi	Yalpi ichkn mahsulotga nisbatan, foiz	max 3
Davlat qarzi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	max 60
Tashqi qarzarlar bo'yicha to'lovlar	Yillik eksport hajmiga nisbatan, foiz	max 20
Oltin-valyuta zahiralar hajmi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	min 8

Valyuta almashuv kursi devalvatsiyasi	Milliy valyutani jahonning “qattiq” valyutalariga nisbati, foiz	max 15
Milliy bozorda xorijiy tovarlar ulushi	Bozor hajmiga nisbatan, foiz	max 40
YAIMda jamg‘armalar ulushi	Yalpi ichki mahsulotga nisbatan, foiz	min 10
Aholi daromadlari bo‘yicha tabaqlanishi	Ditsel koeffitsienti, marta Jini koeffitsienti, indeks	max 10 max 0,35

Manba: Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Fondi tavsiyalari asosida muallif tomonidan tuzildi

Mamlakatimiz Hukumati tomonidan 2023 yilning 25 oktyabrida qabul qilingan 561-sonli qarori yuqorida qayd etib o‘tilgan jihatlarning bartaraf etilishiga asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2023) 561-sonli Qarori bilan mamlakatimizda «yashil» infratuzilmalarni yaratishga xususiy kapitalni faol jalb etish, «yashil» iqtisodiyotning asosi hisoblangan soha va tarmoqlarni moliyaviy ta‘minlashni qo‘llab-quvvatlash hamda «yashil» turdagi faoliyatni tasniflash mezonlarini joriy etish maqsadida Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasi tasdiqlandi.

Milliy «yashil» iqtisodiyot taksonomiyasi 7 ta toifadagi yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ular xususiyatiga ko‘ra quyidagilarga ajratilgan (4.2-rasm).



1-rasm. Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasi yo‘nalishlari

Manba: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 25 октябрдаги «Миллий «yashil» иқтисодиёт тақсономиясини тақдирлаш тўғрисида»ги 561-сонли қарори асосида шакллантирилган

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, hududlarni mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishdagi ishlar 2020-yil boshida, 2019-yil oktabr oyida “2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlanganidan keyin boshlandi.

4. Xulosa

Yuqorida o‘rganilgan iqtisodchi olimlar, mutaxassislarning fikri, mulohazasi va olib borilgan tadqiqotlarimizga tayangan holda xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari o‘rganish yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hamda yashil loyihalarni samarali tashkil etishga yordam beradi. Yuqorida tadqiq qilingan jihatlarni inobatga olgan holda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, uning amal qilish mexanizmlarini samarali ishlab chiqish va xorij tajribasini milliy amaliyotimizga moslashtirish kabilarga e‘tibor qaratish lozim.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari o‘rganish asosida quyidagilarni qayd etish lozim:

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yashil loyihalarni moliyalashtirishning yangi shakllarini amaliyotda qo‘llash mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim;

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mazkur jihatlarni inobatga olish lozim;

Milliy iqtisodiyotning energiya sig‘imkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiyalash, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan samarali yashil loyihalarni ishlab chiqish lozim;

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Яшил иқтисодиёт” асосида барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари, “XXI аср: фан ва таълим” илмий электрон журнали. №2, 2017 йил.
2. Макроиктисодий барқарорликни мустаҳкамлаш-барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шarti, “Иқтисодиёт ва Таълим” илмий журнали, №2, 2017
3. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2014.
4. Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning Yangi va yuksak bosqichi yo‘lida. -T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b.
5. Mo‘minov A. «Iqtisodiy o‘shish va uning omillari nimalardan iborat» //O‘zbekiston ovozi. 20.05.2016 y.
6. Словарь современной экономической теории Макмиллана – М.,1997.с. 471.
7. “Иқтисодий ўсиш” Дарслик, Термиз Давлат Университети, 2009 йил
8. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries, A Summary for Policy Makers, June 2012
9. Frankfurt School-UNEP Centre/BNEF, 2018. Global Trends in Renewable Energy Investment 2018, <http://www.fs-unep-centre.org>
10. Molly Scott Cato, Green Economics, An Introduction to Theory, Policy and Practice, First published by Earthscan in the UK and USA in 2009
11. Green Growth, Smart Growth- A new Approach to Economics, Environment & Innovation, 29. August 2016
12. Boris Porfiryev, Climate Change and Economy, 7 July 2010
13. A guidebook to the Green Economy, Division for Sustainable Development, UNDESA, August 2012.